	13. www.researchgate.net – ilmiy tadqiqotlar rasmiy sayti. 14. https://bulletin.stanford.edu/courses/2157241?
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil "____" _____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** B. A. O'lmasova - SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi.
9	**Taqrizchilar:** F.R. Xalimova – SamDChTI, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. professori, DSc. Sh.U. Tashmatov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent, PhD.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
_____ B. Xolikov
"02" _____
Ro'yxatga olindi № BD-61010100-1.19
2025-yil "___" _____

JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko'rsatish sohasi
Ta'lim yo'nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
JIXIM1506	2027-2028	5	6
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		5

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar**	72	108	180

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish, o'z yo'nalishiga nos tasavvur ko'nikmalarini shakllanishdir.

Fanning vazifasi – Ushbu kurs global iqtisodiyot qanday boshqarilishini belgilovchi ichki va xalqaro siyosiy omillarni o'rganadi. Kurs davomida monetar siyosat, savdo, xalqaro investitsiyalar, energetika, atrof-muhitni muhofaza qilish va tashqi yordam siyosatining siyosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Har bir mavzu turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi hamda ushbu nazariyalar tarixiy va zamonaviy dalillar orqali baholanadi. Kursda konsepsiyalarni amaliy qo'llashga alohida e'tibor qaratilib, real holatlar (case study) asosida tahlillar olib boriladi.

Asosiy qism (maruza mashg'ulotlar)

2 **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

O'qish moduli

1- mavzu. Jahon xo'jaligining mohiyati va uning shakllanish bosqichlari.

Jahon xo 'jaligining mohiyati. Jahon iqtisodiyotining viujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanish asoslari.

2- mavzu. Jahon iqtisodiyotida sanoat jihatidan taraqqiy etgan mamlakatlar.

Sanoat jihatdan tarqaqiy etgan mamlakatlarning umumiy tavsifi. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning guruhlanishi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibi.

3- mavzu. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining holati, tarkibi, va rivojlanish tendensiyalari.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy belgilari va guruhlanishi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish modellari. Rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyining ortib borishi.

4- mavzu. Xalqaro mehnat taqsimoti.

Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati. Mamlakatlarning XMTda qatnashishlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va uning rivojlanish ko'rsatkichlari.

5- mavzu. Xalqaro savdo nazariyalari.

Merkantilizm va erkin savdo g'oyasi. Mutlaq va nisbiy afzallik nazariyasi. Xalqaro savdoning yangi va o 'ta yangi nazariyalari.

6- mavzu. Tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlari.

Tashqi savdoni tartibga solish zarurati va tashqi savdo siyosati. Bojxona tarifining turlari va hisoblash usullari. Tarifning milliy iqtisodiyotga ta'siri.

7- mavzu. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif metodlari.

Notarif metodlarning guruhlanishi. Miqdoriy cheklovlar. Savdo siyosatinig moliyaviy metodlari. Savdo siyosatining yashirin metodlari. Tartibga solishning noiqtisodiy metodlari.

8 - mavzu. Xalqaro kapital migratsiyasi.

Xalqaro kapital migratsiyasi: sabablari, omillari, va ko'rsatkichlari. Xalqaro kapital migratsiyasining tarkibi va rivojlanish tendensiyalari. Xalqaro kapital migratsiyasini tartibga solish usullari. O'zbekiston xalqaro kapitallar migratsiyasi jarayonida.

9-mavzu. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mohiyati, tarkibi va dinamikasi. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va pul o'tkazmalari. Xalqaro ishchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish usullari.

10- mavzu. To 'lov balansi, tashqi qarz, va oltin-valuta zaxiralari.

To'lov balansi. Tashqi qarz. Tashqi qarz inqirozi va tashqi qarzni tartibga solish. Oltin-valuta zaxiralari. To'lov balansi va iqtisodiy siyosat.

11- mavzu. Xalqaro valuta munosabatlari.

Valuta munosabatlari tushunchasi va valuta tizimi. Jahon valuta tizimi va uning asosiy elementlari. Valuta operatsiyalari va ularning asosiy turlari.

12 – mavzu. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar: mohiyati, zaruriyati, funksiyalari, va guruhlanishi. BMTning ixtisoslashgan iqtisodiy va moliya tashkilotlari. Xalqaro moliya tashkilotlari. Xalqaro mintaqaviy moliya tashkilotlari. O'zbekiston va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

13- mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya: zarurati, mazmuni va rivojlanish omillari Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari va rivojlanish bosqichlari.G'arbiy yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari. O'zbekistonning integratsion tashkilotlardagi ishtiroki.

14 – mavzu. Sanoati rivojlangan mamlakatlar.

Sanoat rivojlanishining tarixi va asosiy bosqichlari. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot. Sanoat siyosati va iqtisodiy barqarorlik. Ijtimoiy masalalar va sanoat rivoji o'rtasidagi bog'liqlik. Rivojlangan mamlakatlar va global iqlim o'zgarishi.

15 – mavzu. Xalqaro savdo aloqalari va savdo siyosati.

Xalqaro savdo tizimlari. Savdo balansi va uning iqtisodiy ahamiyati. Erkin savdo zonalari va ularning iqtisodiy ta'siri.Globalizatsiya va uning xalqaro savdoga ta'siri.

16 – mavzu. AQSH va Kanada iqtisodiyoti

AQSH iqtisodiyoti haqida umumiy tushuncha. AQSH iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. AQSH va Kanada sanoati haqida ma'lumot. Kanada va AQSH ning hamkorlik siyosati. O 'zbekiston va AQSH tashqi iqtisodiy aloqalari.

17 – mavzu. Yaponiya iqtisodiyoti

Yaponiya iqtisodiyotining umumiy tavsifi. Tarixiy rivojlanish bosqichlar. Asosiy iqtisodiy tarmoqlar. Yaponiya va xalqaro savdo. Iqtisodiy islohotlar va hukumat siyosati

18 – mavzu. Xitoy iqtisodiyoti.

Xitoy iqtisodiyotining o`ziga xos xususiyatlari. Uning jahon iqtisodiyotida tutgan o`rni. Xitoy iqtisodiyotining tarkibi. O 'zbekiston va Xitoy aloqalarining ustuvor yo 'nalishlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar.

Amaliy mashg'ulotlari uchun tavsiya etladigan mavzular:

1. Jahon iqtisodiyotining viujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.
2. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning guruhlanishi.
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatlashtirish modellari.
4. Mamlakatlarning XMTda qatnashishlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar va uning rivojlanish ko`rsatkichlari.
5. Xalqaro savdoning yangi va o 'ta yangi nazariyalari.
6. Tashqi savdoni tartibga solish zarurati va tashqi savdo siyosati.
7. Savdo siyosatinig moliyaviy metodlari.

8. Xalqaro kapital migratsiyasi: sabablari, omillari, va ko`rsatkichlari.
9. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mohiyati, tarkibi va dinamikasi.
10. To 'lov balansi, tashqi qarz, va oltin-valuta zaxiralari.
11. Jahon valuta tizimi va uning asosiy elementlari.
12. Xalqaro moliya tashkilotlari.
13. Xalqaro iqtisodiy integratsiya: zarurati, mazmuni va rivojlanish omillari.
14. Sanoati rivojlangan mamlakatlar.
15. Xalqaro savdo aloqalari va savdo siyosati.
16. AQSH va Kanada iqtisodiyoti
17. Yaponiya iqtisodiyoti.
18. Xitoy iqtisodiyotining o 'ziga xos xususiyatlari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Jahon iqtisodiyotining viujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.
2. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanish asoslari.
3. Sanoat jihatdan tarqaqiy etgan mamlakatlarning umumiy tavsifi.
4. Mamlakatlarning XMTda qatnashishlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar
5. Merkantilizm va erkin savdo g`oyasi.
6. Bojxona tarifining turlari va hisoblash usullari.
7. Notarif metodlarning guruhlanishi.
8. Xalqaro kapital migratsiyasi:
9. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va pul o`tkazmalari.
10. To`lov balansi va iqtisodiy siyosat.
11. . Jahon valuta tizimi va uning asosiy elementlari.
12. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.
13. G`arbiy yevropada integratsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari.
14. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot.
15. Xalqaro savdo tizimlari.
16. AQSH iqtisodiyoti haqida umumiy tushuncha.
17. Yaponiya iqtisodiyotining umumiy tavsifi.
18. Xitoy iqtisodiyotining o`ziga xos xususiyatlari.

Mustaqil o`zlashtiriladigan mavzular kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko`rsatma asosida bajariladi.

3	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Ushbu o`quv dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar quyidagi bilim, ko`nikma va munosabatlarga ega bo`ladilar:

	- Jahon iqitisoidyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo'nalishlari, jahon mamlakatlarining tashqi savdosi, uning tarkibi, xalqaro savdoning asosiy nazariyalari, xalqaro korporatsiyalar, xalqaro iqtisodiy integratsiyalar va tashkilotlar faoliyati haqida tasavvurga ega bo'lishi; - alaba jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlami tavsiflovchi iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy ko'rsatkichlami tahlil qilish va umumlashtirish xususiyatlarini; ma'lumotlar yig'ishni tashkillashtirish va ularning aniqligi hamda sifatini baholash, kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlami jamlash, qayta ishlangan ma'lumotlar natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va dasturlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; - talaba jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tamoyillari, nazariy asoslarini hayotga tadbiq etish; xorij mamlakatlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini tadqiq qila olish; tashqi savdo shartnomalarini tuzish, texnika va texnologiyalar ayirboshlash bo'yicha bitimlar imzolash; xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida hamkorlikning eng ratsional uslub va ko'rinishlarini aniqlay olish; iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish haqida ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - talaba jahon xo'jaligining mohiyati va jahon iqtisodiyoti rivojlanishining tamoyillari, xalqaro iqtisodiy munosabatlaming zamonaviy tamoyillari va xususiyatlari, bozor iqtisodiyoti asoslari va tamoyillari, iqtisodiy tizimlar turlari va modellari, jahon xo'jaligining global muammolari, jahon xo'jaligining tarmoq tuzilmasi, xalqaro iqtisodiy integratsiya, qo'shma korxonalami tashkil etish va boshqarish malakalariga
4	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • videodarsliklar; • videokonferensiyalar; • taqdimotlar tayyorlash; • tezkor savol-javoblar o'tkazish; • guruh bo'lib ishlash; • mavzularga doir online platformalarda (Moodle, Quizlet) test ishlash; • online guruhlarda loyilalar yaratish; • mantiqiy fikrlash

	• portfolio yaratish.
5	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy darslarda faol va to'liq qatnashish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini a'lo darajada bajarish va hisobot topshirish, yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, Sh.I.Raxmanov, X.A.Usmanova "JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR". O 'quv qo 'llanma. Toshkent-"Voris-Nashriyot".2014, 320 b. 2. N.S. Ismailova, U.U. Shagazatov.. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik -Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019.-320 b. **Qo'shimcha adabiyotlar** 3. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik. – T.: Barkamol fayz media, 2017. 4. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 480 bet. 5. Muxammedov M.M. va boshqalar Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2022. 6. Мухаммедов М.М, Камилова Н.А. Экономическая теория. Учебник для бакалавров. Fan va texnologiya nashriyoti, 2023.-624 7. Xajiyev B.D., Mamaraximov B.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (rus tilida). – T.: "Iqtisodiyot", 2019. – 548 bet. **Axborot manbaalari** 8. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 9. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 10. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti. 11. www.UNWTO.org.- BmTning rasmiy sayti. 12. www.uza.uz. –O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.